

Bugungi Kun Yoshlarining Kitobxonlikka Munosabati

Maftunaxon Abduolimova

Farg`ona davlat universiteti o`qituvchisi

Jo`raxo`jayeva Malohatxon Abdumajid qizi

Farg`ona Davlat unversiteti talabasi

Annotatsiya: XXI asr o`z nomi bilan texnika taraqqiyoti asridir. Taraqqiyot nafaqat sanoat, atrof muhitga ta`sir etibgina qolmay, inson hayotining mazmuni bo`lmish orzu-umidlar, goho shirin gohida esa achchiq bo`lgan ijtimoiy yashash tarzimizga ham o`z hukmini o`tkamoqda. Xo`sh shu o`rinda savol tug`iladi “Inson bolasi shu qadar ma`naviyati zaif va ojizmi, uni doimo qandaydir tahdidlardan himoya etish lozim bo`lsa, himoya qilyapmiz, ha himoya qilyapmiz. Demak, bizni qo`rqitgan nimadir bor... O`ylashimizcha bu qo`rqinch kitob tanimaslikdir.

Kalit so`zlar: yoshlar, kitob, ijtimoiy tarmoqlar, kitobxonlikka targ`ib etishda ota-ona o`rni, zamonaviy texnologiyalar, maktab kutubxonasi, bolaning yoshiga mos kitob tanlash.

Bugun zamonaviy texnologiya kirib bormagan jabha qolmadi hisob. Har bir ishda hikmat bo`lgani kabi buning ham insonlar yashash tarziga yengillik bergani rost. Masalan, kir yuvish mashinasi, mobil telefon, turli tibbiyot apparatlari, voqiflik uchun kameralar. Uy-ro`zg`or buyumlari sanasak anchaginani tashkil etadi. Bu qulaylik, aslida, insoniyat uchun, uning yukini yengil qilish uchun o`ylab topilgan. Zero, shu zamongacha bizni yetklab kelgan ziyo-kitob deb atalgan ozuqani bugungi iste`moli kamligi, ertaga yana va yana riojlanishimizda qo`qilishimiz va yoki juda ko`p millatlardan ortda qolishimizga sabab bo`ladi. Prezidentimiz aytganidek “Kitob o`qigan bola kitob ko`rmagan yuzta bolani yetaklaydi”. Bu fikrlarda nechog`li haqiqat bo`lsa, biz uni yaqqol ko`rib turibmiz. Lekin tan olishga kelsak, ma`naviy ozuqasiz g`ururimiz bunga yo`l qo`ymaydi.

Bugun yoshlarimiz, tengdoshlarimiz, ukalarimiz kitob o`qimay qo`yishdi. Ularni kitobga jalb etish juda ko`p harakat va yoki vaqt talab etayotganligi hech kimga sir emas. Mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, bir qancha katta mablag` talab etuvchi tanlovlar va musobalar o`tkazildi. Bunday tadbirlar ko`lami yana kengaytirilib targ`ibot ishlari amalga oshirilmoqda. Bugun shunday zamonaviy texnologiya va vositalar juda keng tarqalgan kunda yoshlarni, bolalarni kitob o`qishga qiziqtirish, ularni mutolaa jarayoniga jalb qilish murakkab vazifa bo`lib qolmoqda. Xo`sh, butun mamlakat bo`ylab kitob mutolaasiga rag`batni oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Nima qilinsa yoshlar, bolalar kitob o`qishga jon-jahdi bilan intiladi?

Bolalarni kitobxon qilish uchun ular va kitob orasidagi masofa yaqinlashishi lozim. Birinchisi-maktab kutubxonasi keng, qulay va shinam, lekin ba`zi kutubxona mudirasi ma`naviyatsiz yoki targ`ibot qilishni bilmaydi, u kitob maskanida o`tkazgan soatlari uchun olinadigan mablag` ya`ni oylik maosh uchungina o`sha yerda. Unga qancha odam kam bo`lsa shuncha yaxshi (uning oylik maoshi kamayib qolmaydi-ku). Ikkinchisi-kitobxonlikka qiziqtiruvchi tadbirlarning kamligi. Uchinchisi, yaxshi kitoblarning tan narxi qimmatligi. Asosan, o`quvchilar ko`proq mutolaaga qiziqadilar yoki talabalar, ularda esa bunga to`squinlik qilayotgan narsa esa mablag` yetishmovchiligi. To`rtinchisi-vaqt yetishmovchiligi ya`ni biz ko`p vaqtimizni o`qish yoki ishda o`tkazamiz va jismonan toliqamiz. Beshinchi va asosiysi yuqoridagi hamma (lozim bo`lsa bahonalarimizni) sabablardan ham ustunrog`i bu ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishimizdir.

Ularning ohangrabo kabi tovlanishi bizni darrov chalg'itadi va ko'p vaqtimiz xohlamasakda zoye ketadi.

Biz deyarli o'quvchi kitob o'qimasa ota-onani emas ko'proq maktabni ayblaymiz, vaholanki, bola oilasidagilar fikrini tezroq hayotga tadbiq qiladi. Xalq bejizga "Qush uyasida ko'rganini qiladi" demagan. Oilada ko'proq bola tarbiyasi onalarga qoladi. Buning sabablari hammamizga ma'lum ota yo tongdan tungacha ishda, yoki chet elda. Shu sababga ko'ra biz qizlar ta'limiga ko'proq va yana ham ko'proq e'tibor qaratishimiz lozim. Shu yaqin o'n yillik ichida qizlar voyaga yetsa bo'ldi, uni turmushga chiqishi shart bo'lib qoldi. Ya'niki, ota-ona "Qiz saqlaguncha tuz saqla" aqidasi amal qilib yosh va g'o'r qizlarni turmushga berishyapti. Uning diniy va dunyoviy bilimi hech kimni qiziqtirmaganini-ku gapirmasa ham bo'ladi. U ertaga albatta farzandli bo'ladi. Kitob ko'rmagan onalik ilmi haqida tushunchasi yo'q holatda farzand tarbiya qiladi. Birinchisida orttirgan tajribadan kelib chiqib kichiklarini tarbiya qiladi. Lekin katta farzand "tajriba quyunchasi" g'o'r holatda hayot qura oladimi? Mana zanjir ketma-ketligi qayerlarga yetaklamaydi. Qarangki, bola tarbiyasida kitobning o'rni shu qadarki, yetuk olimlar ham kitob mutolaasi haqida kuyunib fikr yuritganlar.

Bola yashayotgan muhit kitob o'qishga moyil bo'lishi muhim. Ota-ona o'zi o'rnak bo'lmasdan turib bolani biror ishga majburlashi mumkin bu esa hech qachon samara bermaydi. Ya'ni "Bo'ynidan boylangan it ovga yaramas" degandek gap. Otalik ilmi shunday bo'lsaki o'zi amal qilsin, bola ko'rib takrorlasin va bundan rohat topib yonidagilarga o'rnak bo'lsin. Hozirda, aksincha, ota-ona ijtimoiy tarmoqda farzandga esa "Vazifangni qil" buyrug'i beriladi. Bola faqat ertaga gap eshitmaslik yoki 2 baho olmaslik uchun vazifa qiladi. Shu bilan kitob yopiladi. O'zi kitob ko'rmagan ota-ona qanday qilib biladi kitob tanlashni. Bolaga sovg'a qilingan kitob bolaning yoshi va qiziqishlariga mos bo'lishi, uni kitob olamiga birmuncha osonroq yetaklaydi. Tohir Malikning "Shaytanat" asarida ham kitobxon oilalar, kitobxon qizlarni kelinlikka nomzod ko'rishi keltirilgan. Amir Temur esa kelinlikka nomzodlarni juda ko'p chig'iriqlarda sinab ko'rganlar. Bola tarbiyasini nozik bilib "Bitta bolani tarbiya qilish, butun boshli davlat ishidan mushkul" ekanligini aytib o'tgan. Shukrki, kitobsevarlar yo'q emas, lekin ularning kamligi achintiradi insonni. Bu safni kengayishi millatni rivojiga olib keladi. Joyi va vaqti aniq bo'lmagan holda bir qamoqxona boshlig'i o'qituvchi bo'lishga qaror qilibdi. Undan bu nehol deb so'rashsa, u shunday deb javob bergan ekan: "Juda ko'p jinoyatlar tarixini ko'rib chiqdim va shu xulosaga keldim. Kasalni davolagandan ko'ra oldini olgan yaxshiroqdir". Albatta, bu mutlaq haqiqat emas. Ammo hamma joyda, har doim ham emas. Aksariyat oilalarda vaziyat taxminan quyidagicha: ona kuni bo'yi uy-ro'zg'or ishlari bilan band, ozgina bo'sh vaqt topdi deguncha qo'shni ayollar bilan hasratlashishga oshiqadi. Televizor, serial ko'rish, to'y-marakalarda qatnashish va boshqalarga ajratilgan vaqt kitob o'qishga yetmaydi. Ota esa kuni bo'yi ishda bo'lib, kechqurun kelib ovqatlanadi-yu, biroz televizor ko'rgandek bo'lib, so'ngra uxlashga kirib ketadi. O'qilgan kitoblarni muhokama qilish, qanday kitoblarni o'qish bo'yicha maslahatlar berish, afsuski, oilalarda juda kam uchraydigan holat. Ommaviy ravishda: xiyobonlarda, transport vositalari, kutish zallari, bekatlar, shifoxonalarda kitob o'qilishi haqida gapirmasak ham bo'ladi. Qaniydi bunday joylarda shundoqqina qo'l uzatsang yetadigan yerda kitoblar tursa-yu, bo'sh vaqtingda mutolaaga berilsang. Bu so'zlar aslo shaxsiy tasavvurim mahsuli emas. Ko'plab mamlakatlarda shu kabi ijtimoiy loyihalar yo'lga qo'yilganki, odamlar o'qib bo'lgan kitoblarini hamma uchun ochiq va bepul bo'lgan maxsus javonlarga keltirib qo'yadi. U yerdagi istagan asarini olib ketishi mumkin. Marhum adibimiz Asqad Muxtor aytganidek, "Kitob – boylik, sotib olingani emas, balki o'qilgani". Masalaga mana shu nuqtadan qarasa, bu bebaho boylikni hamma bilan bo'lishish mumkin.

Bolalarni kitobga qiziqtirishda ustozlarning xabardorligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu haqda yuqorida kutubxonachilar misolida mushohada yuritgandek bo'ldik. Ota-ona va pedagoglar bolaga qanday kitob olib berishni bilishi kerak. Bolaning yoshiga mos kitob tanlash muhimdir chunki bola tushungan va o'zining hayotiga mosroq tushgan qahramonlar hayotiga ko'proq qiziqadi. O'qib chiqqanlarini esa do'stlariga ham so'zlab beradi. O'qishga qiziqqan do'stlari albatta o'qib chiqish uchun harakat qiladilar. Aksincha, qiziqmaganlar esa odamlar ko'ziga kitob ko'tarib yuradilar va hijjalab o'qib aksariyat hollarda kitobga oshno bo'ladilar. Yana kitobni targ'ibot qilish orqali kitobxonlar sonini oshirish mumkin. Undagi qiziqarli voqea, yoki kun mavzusi orqali kitobxonlar

mehrini qozonish mumkin. Ota-onalar majlislarida faqat moliyaviy masalalar emas, kitobxonlikni targ'ib qilish, sinflar kesimida bolalar yoshiga mos asarlar ro'yxati tuzilib, ota-onalarga tarqatilsa bo'ladi. Shu bilan birga, bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish va bu qiziqishlarni to'g'ri va samarali qondirish bo'yicha ham maslahat, tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq.

Kitobxonlikni targ'ib qilishda o'quvchilarning orasida kitob mutoalasiga bag'ishlangan kechalar tashkil etish, biror kitob matni ustida viktorinalar tashkil etish, musobaqlar o'tkazish, kitob do'konlarida kitoblar narxini arzonlatish kerak. Masalan tug'ilgan kunlarda, muhim sanalarda kitob sovg'a qilinsa, bu bora-bora urfga aylanadi. O'ylab qarajak kitob eng yaxshi sovg'a. Xo'sh muammo nimada. Muammo kitob narxlarida. Ayrim kitoblar shu darajada qimmatki, sotib olib sovg'a qilish yoki o'qishga pul topa olamay qoladi. Ko'p hollarda yaxshi mavzudagi kitoblar juda qimmatligidan xarid qilishga imkon topa olmaydi o'quvchi.

Muammoni yechish yo'llari hamisha bo'lgan maqsad bolalarning kitobni ommaviy ravishda sevib o'qilishiga erishish ekan, bu yo'lda bor imkoniyatlarni ishga solish, jarayonni ortiqcha, keraksiz va faqat zarar keltirayotgan tashkiliy, ma'muriy to'siq va g'ovlardan xalos qilish, kitobning hammabopligini oshirish yo'llarini topaverish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Мадиева Г.А. Гавхар Абдулазимовна, and Назира Наримановна Дусбаева. "Some modern methods of teaching English." Молодой ученый 7-2 (2016): 102-104.
3. Мадиева Г. А., & Дусбаева, Н. Н. (2016). Some modern methods of teaching English. Молодой ученый, (7-2), 102-104
4. Greenalls. and M. Swan. 1986. Effective Reading. Cambridge. Cambridge University Press.
5. Baker. T.2008.Applying reading research to the development of an integrated lesson plan.
6. Arabova Gulsanam Saburovna "INGLIZ TILI KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING USUL VA YO'LLARI" Mamun University NEI
7. Afarizimlar.uz
8. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=1627>
9. https://m.facebook.com/story.php?story_fbid=pfbid0MJ1kcZfWbRL9yNKecG1pWVvKEnyQx9D6PH6PoRJBofsf2szHC8VtiCHWfXpujHvk9l&id=110857590819463&locale=hi_IN